



## PRESS-RELIZ

2022-yil 5-sentabr

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida” 2022-yil 7-iyuldagi PQ-311-son qaroriga asosan 2022-yil 1-sentabrdan boshlab fuqarolar va yo‘lovchi tashish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan transport vositasi ijarasi shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo‘yilishi belgilandi.

Shuningdek, yo‘lovchilarni haydovchidan tashqari to‘rttadan ortiq bo‘lmagan o‘rindiqlarga ega bo‘lgan yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati **o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar** shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatiga kiritildi.

Shunga asosan, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan “E-Ijara” elektron xizmatida transport vositasi ijarasi shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo‘yish imkoniyati yaratildi.

Elektron xizmatdan foydalanish uchun “ijara.soliq.uz” internet manziliga ijaraga beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar elektron raqamli imzosi (ERI) orqali kiriladi.

Shartnomani hisobga qo‘yish uchun “Transport vositalari ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish” oynasiga o‘tiladi.

Elektron xizmat vazirlik va idoralar bilan integrasiya qilinganligi sababli ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma‘lumotlar avtomatik ravishda shakllanadi.

Xususan, transport vositasini ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar (JShShIR, FIO, manzili), ijaraga berilayotgan transport vositasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (rusumi, davlat raqami va h.k) avtomat ravishda shakllanadi.

Mulkdor ijaraga berilayotgan transport vositasini tanlab, ijaraning boshlanish va tugash sanalari, bir oylik ijara to‘lovi miqdorini kiritadi hamda

shakllangan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun jo'natish tugmasi orqali ijaraga oluvchiga jo'natadi.

Ijaraga beruvchi jo'natgan ma'lumotlarni ijaraga oluvchi tomonidan tekshirilib, tasdiqlash tugmasi bosilgandan so'ng ijara sharnomasi soliq organida avtomatik ravishda hisobga olinadi va hisobga qo'yilganligi to'g'risida guvohnoma shakllanadi.

Transport vositalarini ijaraga berish shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yilishi soliq to'lovchilarning ortiqcha ovoragarchiligini oldini olish, korrupsion holatlarni bartaraf etish, bozorda teng raqobat muhitini yaratish, halol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi.

**Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti**